

**„YANGI O'ZBEKISTONDA ADOLATLI JAMIyat QURISHNING ILMiy-NAZARIY ASOSLARI“**

**Asadova Sabina**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti „Milliy istiqloq g'oyasi , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " 2-bosqich talabasi Ilmiya maslahatchi **Safarova Nigora**

**Annotatsiya:** Maqolada Yangi O'zbekistonda adolatli jamiyat barpo etish shunchaki orzu istak emas , balki mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy, madaniy, huquqiy vaziyatni taqozo etayotganligi ilmiy o'rganilgan.

**Kalit so'zlar :** taraqqiyot , strategiya , adolat, demokratiya, qonun, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, davlat va jamiyat

**Ключевые слова:** развитие, стратегия, справедливость, демократия, закон, права человека, гражданское общество, государство и общество

**Keywords** development, strategy, justice, democracy, law, human rights, civil society, state and society

Kirish.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va odil fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida ildam odimlamoqda. ijtimoiy adolat amalda bo'lsa, jamiyat hayoti yengillashadi va iqtisodiyot samarali ishlaydi. Yanada muhimi, qashshoqlik, tengsizlik va ijtimoiy tanglik kamayadi. Bunday jamiyat qurish uchun avvalo ijtimoiy adolat tashkil topishi zarur.

Ijtimoiy adolat – shunchaki axloqiy talab emas, balki milliy barqarorlik va global farovonlik asosidir. Zero, teng imkoniyatlar, hamjihatlik va inson huquqlarini hurmat qilish mezonlari davlatlar va xalqlarning ishlab chiqarish salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun juda muhim.Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

„Bizning ustuvor vazifamiz — inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir.“-, ushbu so'zlar Prezident Shavkat Mirziyoevning “Yangi

O'zbekiston strategiyasi" kitobidan olingan bo'lib uning ikkinchi bo'limi aynan „Adolat va qonun ustuvorligi-xalqparvar davlat poydevori" deb ataladi. Yangi O'zbekistonda kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatiga aylantirish g'oyasi asosida fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni birlashtirishga ko'maklashish uchun tashkil etish mo'ljallangan Jamoatchilik palatasiga konstitutsiyaviy organ maqomini berish maqsadga muvofiqligi ham aks etadi asarda.

Muhokama va natijalar.

Bugungi kunda ijtimoiy adolatli, demokratik va huquqiy davlat tashkil toptirish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Prezidenti ta'biri bilan aytganda:

ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi;

shuningdek, ijtimoiy davlat shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi;

ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir;

yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta'minlanish, majburiy mehnatga taqiq qo'yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi;

eng muhimi, ijtimoiy davlatda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi, o'z muammolari bilan yolg'iz tashlab qo'yilmaydi.

Bugun davlatimiz rahbari "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyilini asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'ygan. Bunda biz o'tgan besh yilda hayotimizga teran tatbiq etgan qamrovdor va tizimli islohotlarning uzviyligi hamda davomiyligini ta'minlash maqsadi ko'zda tutilmoqda. Bugun davlatimiz rahbari "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyilini asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'ygan. Bunda biz o'tgan besh yilda hayotimizga teran tatbiq etgan qamrovdor va tizimli islohotlarning uzviyligi hamda davomiyligini ta'minlash maqsadi ko'zda tutilmoqda. Jumladan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan „Taraqqiyot strategiyasi" da

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish kabilar o'z aksini topgan.

Zamonamizning bu va boshqa qator masalalari butun davlat boshqaruv tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga- „Yangi shaxs”, „Yangi fuqarolik jamiyati”, „Yangi demokratik boshqaruv tizimi”-ga olib chiqishni talab qiladi. Bu qat'iy talab o'z navbatida, tizimli konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishni kun tartibiga dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida yangilangan Konstitutsiya qabul qilindi. Jumladan Konstitutsyaning 55-moddasida: „Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro sharhnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan

zararning o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega"-,deb keltirib o'tilgan bu ham mamlakatimizdaadolatning ta'minlanganligidan dalolatdir.

2009 yildan buyon har yilning 20 fevral kuni xalqaro hamjamiyatda "Butunjahon ijtimoiyadolat kuni" sifatida nishonlanishi munosabati bilan tadbirlar tashkil etiladi hamda mamlakatimizda mehnat munosabatlarini yanada takomillashtirish, sohaga xalqaro mehnat standartlarini joriy qilish hamda mehnat qonunchiligini rivojlantirish yuzasidan yangi xulosa va takliflarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yurtimizga tashrif buyurgan chet ellik ekspertlar tomonidan O'zbekistonda ijtimoiyadolatni ilgari surish, nogironligi bo'lgan shaxslarni hayotga moslashtirish, ularning bandligini ta'minlash, ijtimoiy reabilitasiya qilish hamda mehnatkashlar huquqini ta'minlashda erishilgan yutuqlar yuksak baholanadi hamda ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro standartlar asosida shakllanganligi e'tirof etiladi.

#### Xulosa

Bir so'z bilan aytganda, qaysiki davlatda inson qadri ulug'lansa, inson manfaati hamma narsadan ustun bo'lsa, o'sha davlatda taraqqiyot tezlashadi, rivojlanish bo'ladi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar zamirida, albatta inson, uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari mujassam.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. „Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi“ Sh.Mirziyoyev „O'zbekiston“ Toshkent 2022
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi „Adolat“ milliy huquqiy axborot markazi Toshkent 2023
3. „Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz“ Sh. Mirziyoyev „O'zbekiston“ Toshkent 2021